

Saida QAYUMOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti talabasi
 E-mail: qayumovasaida581@gmail.com

Y.f.n B.Turayev taqrizi asosida

HUQUQ NORMALARI TUSHUNCHASI VA BELGILARI

Аннотация

Huquq normasi yuridik fan, xususan, davlat va huquq nazariyasining fundamental kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada huquq normalari tushunchasi va belgilari haqida kerakli ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Huquq normasi, Gipoteza, Dizpozitsiya, Sanksiya, huquq majburiyatlari.

ПОНЯТИЕ И ПРИЗНАКИ ПРАВОВЫХ НОРМ

Аннотация

Правовая норма является одной из фундаментальных категорий юридической науки, в частности теории государства и права. В данной статье приведены необходимые сведения о понятии и признаках правовых норм.

Ключевые слова: Правовая норма, Гипотеза, Диспозиция, Санкция, правовые обязательства.

CONCEPT AND SIGNS OF LEGAL NORMS

Annotation

The legal norm is one of the fundamental categories of legal science, in particular, of state and legal theory. This article provides the necessary information about the concept and signs of legal norms.

Key words: Legal norm, Hypothesis, Disposition, Sanction, legal obligations.

Kirish. Huquqiy munosabatlarning muayyan sohalariga aniq ta'sir o'tkazayotgan sharoitdagina, shu munosabatlarni boshqarish uslubi sifatida huquq to'g'risida so'z yuritish mumkin. Huquq ishlab turganda va uning bu ishlashi samara bergandagina uni huquq deyish mumkin. Shunday qilib, huquqning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi samarali ishlashi uning yashash uslubi bo'ladi. Ayni paytda u inson ongigidan tashqarida mavjud bo'lishi mumkin emas.

Lekin huquq ong tomonidan o'zlashtirilishi uchun u moddiy shakllangan bo'lishi kerak. Ya'ni davlat organlaridan yuboriladigan hamda huquq normalari aks etgan yozma ravishda rasmiylashtirilgan hujjatlar huquqning mavjudlik (ifoda) shakli bo'ladi.

Shunday qilib, huquq shakllari huquqning davlat bilan aloqasini belgilaydi. Zero, aynan davlat irodasini ifoda etgan huquq bilan obyektiv mavjud ijtimoiy munosabatlar o'rtasidagi aloqa vositachisidir.

Huquq normasi yuridik fan, xususan, davlat va huquq nazariyasining fundamental kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Huquq normasi huquqiy tizimning barcha elementlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bir tomondan, u huquq ijodkorligi, shu jumladan qonunchilik jarayonining mahsuli bo'lsa, ikkinchi tomondan, u huquqni qo'llash jarayoni orqali amalga oshirilib, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish vositasiga aylanadi, shuningdek, huquq normasi huquqiy munosabatlarning andozasi, modeli sifatida maydonga chiqadi. Huquq normalari yig'indisi jamiyat huquqiy tizimining normativ asosini, ya'ni o'zagini tashkil qiladi.

Jamiyatda qaror topadigan yangi munosabatlar ularni tartibga solishga qaratilgan tegishli huquq normalarini yaratilishiga turtki beradi. O'z navbatida, bu huquq normalari yangi munosabatlarni qonuniy jihatdan mustahkamlaydi, muhofaza qiladi va rivojlantiradi. Xuddi shu ma'noda huquq normalari jamiyat taraqqiyotiga muhim hissa qo'shadi, xizmat qiladi. „Norma“ so'zi lotinchadan olingan bo'lib, „qoida“, „namuna“ degan ma'nolarni anglatadi.

Ta'kidlab o'tish joizki, huquq normasi – davlat tomonidan o'rnatiladigan yoki ma'qullanadigan, muayyan shaklda ifodalanadigan, ijtimoiy munosabatni tartibga solishga qaratilgan umumijamoiy xulq-atvor qoidasidir.

Huquq normasi – ijtimoiy munosabatlarni boshqarishga yo'naltirilgan davlatning amr – farmon ko'rsatmasi, umumijamoiy qoidadir. Norma – huquqning asosi, uning mutlaqo zarur zarrachasidir. Huquqiy normalarning shakllanish jarayoni uch bosqichdan iborat:

Huquqiy g'oyaning paydo bo'lishi. Masalan, ibtidoiy jamoa tuzumi paytlaridayoq shaxs daxlsizligi g'oyasi pishib yetilgandi. Huquqiy g'oyalarning tug'ilishi mexanizmi va shart-sharoitlarini huquq nazariyasi fani o'rganadi.

Huquqiy normani ta'riflash (ifodalash). Mazkur bosqichda ijtimoiy ongda mavjud huquqiy g'oyalarni tekshirish va umumlashtirish jarayoni davom etadi, ularni rasmiylashtirish vositalarini izlash, huquqiy normalarni ishlab chiqish tartibi va tamoyillarini o'rganish, ularni qabul qilish tadbirlarini belgilash va hokazolalar davom etadi.

Huquqiy normani amaliyotga kiritish deganda, real ijtimoiy munosabatlarda shu munosabatlarni boshqarish maqsadida ularning faol qo'llanishi tushuniladi.

Huquq normasi – davlat tomonidan belgilanadigan, muayyan shaklda ifodalanadigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan umumijamoiy yurish–turish qoidasi. Huquq normasi tegishli normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, huquq manbaining boshqa turlari shaklida namoyon bo'ladi. Huquq tarmoqlariga bog'liq holda ma'muriy-huquqiy, jinoiy-huquqiy huquq normalari, mehnat, ekologiya, xalqaro, konstitutsiyaviy, xo'jalik va huquqning boshqa tarmoqlariga oid huquq normalari farqlanadi. Amal qilish vaqtiga ko'ra, doimiy (rasmiy bekor qilingunga qadar amal qiladigan) va vaqtinchalik (faqat muayyan vaqt oralig'ida amal bo'luvchi) huquq normasi bo'ladi. Huquq normasi amal qilish hududiga qarab, umumiy va mahalliy normalarga bo'linadi. Bunda birinchisi butun mamlakat hududida amal qilsa, ikkinchisiga kiradigan normalar ma'lum hududlarda amal qilishi mumkin. Huquq normasi subyektlariga qarab, umumiy va maxsus normalarga ajraladi, bunda birinchisi hamma huquq subyektlari uchun, ikkinchisi esa aholining muayyan guruhi yoki aniq belgilangan doiradagi subyektlar (pensionerlar, nogironlar, ichki ishlar xodimlari va h.k.) uchun taalluqli bo'ladi.

Huquq normasining tarkibi – uning tarkibiy qismlari demakdir. Har qanday huquqiy norma tarkibi uni tashkil etuvchi qismlarning birligini taqazo etadi. Biroq, ushbu qismlar tabiati huquqiy normalar turiga bog'liq. Shu munosabat bilan yuridik boshlang'ich (ta'sis, tayanch) normalar hamda xulq – atvor qoidalari o'rnatgan normalarni ajratib ko'rsatish kerak.

Asos bo'lgan yuridik normalar tarkibi. Mazkur normalar moddiy yoki prosedura (tadbir) tavsifidagi biron-bir huquqiy qoidalarni qonuniy o'rnatilishi. Bu ish shu qoidalarni so'zlar orqali ifodalash yoki uning muhim belgilarini ta'kidlash yo'li bilan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining „Chet el investitsiyalari va xorijiy investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida“gi Qonuning 2-moddasi bunga misol bo'la oladi. Unda, jumladan, barcha mulkiy boyliklar va ularga egalik huquqi (birinchi belgi), shuningdek, intellektual mulkka egalik huquqi (ikkinchi belgi), foyda olish maqsadida xorijiy investitsiyalardir, deyiladi. Ko'rsatib o'tilgan belgilar yig'indisi aynan shu yuridik norma tarkibini tashkil etadi. Shuning uchun ushbu normalardan faraz (gipoteza), dispozitsiya yoki sanksiya (jazo chorasi)ni izlash behudadir.

Xulq-atvor qoidalari bo'lgan normalar tarkibi. Xulq-atvor qoidalari bo'lgan normalar tarkibi masalasi ko'pdan ko'p huquqshunoslar e'tiborini tortib keladi. Huquqshunoslikda S.A.Golunskiy hamda M.S.Strogovichlarning yuridik normaning uch qismlik tuzilishi to'g'risidagi fikrlari keng e'tirof etilgan: bu qismlar Faraz (Gipoteza), Dispozitsiya, Sanksiyadan iborat. Huquqiy normada eng avvalo, shu norma qo'llanilishi lozim bo'lgan shart-sharoitlarga ishora, so'ng xulq-atvor qoidasining bayoni, nihoyat, ushbu qoidani bajarmaslik oqibatlariga ishora o'z ifodasini topadi. Huquq normasining tarkibiy elementlari o'rtasida o'zaro yuridik-mantiqiy bog'lanish, yuridik-texnika qoidalariga asoslangan holda ifodalanish, mantiqiy izchillik hamda tizimlilik mavjud. Qolaversa, u huquqiy jihatdan umumiy mazmun asosida bir butunlikni, yaxlitlikni hosil qiladi. Biroq ular ayrim huquq sohalarida huquq normasining elementlari sifatida to'liq holatda, birgalikda uchramaydi (Konstitutsiyaning ta'sis etuvchi normalarida dispozitsiya shaklida). Bunday holatlarda normativ-huquqiy hujjatning tegishli moddalari mohiyatini anglab yetish huquqning ichki tuzilishi bilan bog'liq nazariy qoidalar asosida ijobiy hal etilishi mumkin.

Yuridik normaning uch qismli tuzilishi uning mantiqiy yuridik tarkibi hisoblanadi. U fikrlash yo'li bilan tiklanadi va „Agar...bo'lsa, unda..., aks holda esa... bo'ladi“ tarzidagi shartli ifodadan iborat bo'ladi. Mantiqiy yuridik tarkibni tiklash uchun mantiq qoidalari va talablaridan tashqari qonunchilik, yuridik texnika, huquqiy bog'lanishlarni bilish kerak bo'ladi.

U yoki bu vaziyatda muayyan xulq-atvor andozasini yuzaga keltiruvchi huquq normalari xulq-atvor qoidalari bo'lib, o'z mantiqiy-yuridik tarkibida faraz (gipoteza), dispozitsiya va sanksiyaga ega bo'ladi.

Yuridik norma farazi (gipoteza) – yuridik normaning bir qismi bo'lib, u norma (dispozitsiya) amalga oshiriladigan hayotiy shart-sharoitlarning mavjudligi yoki yo'qligini ko'rsatib beradi. Shuni ham aytib o'tish joizki, huquq normasining dastlabki qismi bo'lgan gipotezada „faraz yordamida xatti-harakatning mavhum varianti konkret „hayotiy“ hodisaga, ma'lum bir shaxsga, vaqtga, joyga „bog'lanadi“. Farazda mustahkamlangan har bir vaziyat (holat) xulq-atvor qoidasiga „hayot nafasini kiritadi“, uni alohida hodisa darajasiga ko'taradi“. Shuningdek, gipotezada huquq normasida belgilangan qoida qay sharoitda va qay holatda hamda kim tomonidan amalga oshirilishi ko'rsatiladi. Gipoteza – huquq normasining bir qismi bo'lib, unda dispozitsiyada ko'rsatilgan qoidaning kuchga kirishi uchun zarur bo'lgan aniq hayotiy holat (voqea, harakat, hodisalar) o'z ifodasini topadi.

Shuningdek, gipoteza huquq normasining harakatini, amal qilish shartini ko'rsatuvchi (vaqt, joy, subyekt va boshqalar) yuridik faktlarni ifoda etuvchi tarkibiy qism sifatida ham e'tirof etiladi.

Faraz yordamida xatti-harakatning mavhum varianti hayotdagi aniq hodisaga, ma'lum bir kishiga, vaqtga, joyga „bog'lanadi“, „jon bag'ishlaydi“, uni alohida hodisa darajasiga olib keladi. Masalan, oila nikoh to'g'risidagi qonun (O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga muvofiq ro'yxatdan o'tish uchun nikohdan o'tuvchi shaxslarning o'zaro roziligi hamda ularning nikoh yoshiga yetgan bo'lishlari talab etiladi. Faqat ushbu holatlar mavjud bo'lgandagina (ijobiy faraz) norma amal qiladi.

Ta'kidlash lozimki, gipoteza matni „agar“, „agarda“, „u holatda“ kabi so'zlari yoki shunga yaqin so'zlar bilan boshlanishi ham mumkin. O'z navbatida, gipoteza ham bir necha turlarga bo'linadi.

Huquq normasining tarkibiy tuzilishi elementi sifatida gipoteza oddiy, murakkab va alternativ (muqobil) turlarga bo'linadi. Huquq normalarining amal qilishi bilan bog'liq bo'lgan bitta shart-sharoit aks etgan gipoteza oddiy gipoteza hisoblanadi. Murakkab gipotezada esa huquq normasining amal qilishi ikki yoki undan ortiq holatlarning mavjud yoki mavjud emasligiga bog'liq ekanligi ko'rsatiladi. Alternativ (muqobil) gipoteza esa huquq normalarining amal qilishi sanab o'tilgan shart-sharoitlardan biriga bog'liq ekanligi bayon etadi. Agar faraz yuridik normaning amal qilishini bir yoki bir necha qonunda sanab o'tilgan bir yoki bir necha holatlar bilan bog'liq qilib qo'yadigan bo'lsa, buni muqobil faraz deyiladi. Masalan, jinoiy jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod etish to'g'risidagi normalarni qo'llash uchun quyidagi shart-sharoitlar talab etiladi: 1) jazoni o'tash rejimi talablarini bajarganlik va mehnatga halol munosabatda bo'lish; 2) jazoning muayyan miqdorlarini o'tab bo'lganlik.

Yuridik norma dispozitsiyasi - normaning huquqiy munosabatlar ishtirokchilari rioya etishlari kerak bo'lgan xulq-atvor qoidalarni ifodalovchi qismi. Dispozitsiya huquq normasining bir qismi bo'lib, unda gipotezada ko'rsatilgan holatlar mavjud bo'lganida huquq subyektlari rioya etishlari lozim bo'lgan xatti-harakat qoidasi (huquq va majburiyatlari) ifodalangan bo'ladi. Dispozitsiya lotincha „disposition“ so'zidan olingan bo'lib, „joylashuv“, „joylashgan“; inglizcha „disposition“ so'zidan kelib chiqqan bo'lib, „farmoyish“ degan ma'nolarini anglatadi.

Dispozitsiya – yuridik normaning yuragi, uning o'zagidir. Lekin yuridik norma faqat birgina dispozitsiyaning o'zidan iborat bo'la olmaydi. Uning atrofida jamlanadigan faraz va sanksiya bilan birga qo'shilgandan keyingina dispozitsiya jonlanadi, o'zining tartibga soluvchi qobiliyatini namoyon etadi. Dispozitsiya – huquqiy xulq-atvor, xatti-harakat modelidir. Xulq-atvor qoidalari qanday bayon etilishiga qarab, dispozitsiyaning quyidagi turlari ajratib ko'rsatiladi:

-oddiy dispozitsiya xatti-harakat variantini ko'rsatib beradi-yu, lekin uning mohiyatini ochib, tushuntirib bermaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 10-moddasi mazmuniga binoan, O'zbekiston Respublikasi xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin.

-murakkab dispozitsiya huquqiy munosabat subyektining subyektiv huquq va yuridik majburiyatlarining keng doirasini o'z ichiga qamrab oladi, ya'ni bunda huquq subyektining huquqlari yoki majburiyatlari sanab o'tiladi.

-muqobil dispozitsiyada xulq-atvor, yurish-turishning bir nechta variantlari ko'rsatib o'tiladi va munosabat ishtirokchilari ulardan biriga amal qilishlari mumkin yoki shart. Masalan, Jinoyat protsessual kodeksining 385-moddasiga binoan, prokuror yoki uning o'rinbosari ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi bilan kelgan jinoyat ishini ko'pi bilan besh sutkada ko'rib chiqishi va quyidagi qarorlardan birini qabul qilishi shart: 1) ishni sudga yuborish uchun asoslar mavjud deb topib, ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasini tasdiqlash; 2) o'z qarori bilan ayblov mazmunidan ayrim bandlarni chiqarib tashlash, yengilroq jinoyatni nazarda tutuvchi qonunni qo'llash va shu o'zgartirishlar bilan ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasini tasdiqlash; 3) qo'shimcha tergov o'tkazish uchun ishni o'z ko'rsatmalari bilan surishtiruvchi yoki tergovchiga qaytarish; 4) surishtiruv o'tkazilgan jinoyat ishini tergovga tegishlilik qoidalari buzilganligi aniqlanganda dastlabki tergov organiga o'tkazish; 5) ishni yuritishni to'xtatish; 6) ishni tugatish; 7) amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish to'g'risida sudga iltimosnoma kiritish.

-tavsiflovchi dispozitsiya – huquq subyektlarining subyektiv huquq va yuridik majburiyatlari hamda xatti-harakatlarining to'liq bayonini ifoda etiladi. Masalan, Jinoyat kodeksining 169-moddasi «o'g'rilik», ya'ni o'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish (qonunda, garchand bu mantiqan o'rinli bo'lmasada, talon-toroj qilish deb yozilgan). Bunda norma dispozitsiyasi hammaga tushunarli bo'lishi uchun ma'lum bir ma'noda, qisqa shaklda izoh beriladi.

-blanket dispozitsiya huquq normasida ko'rsatilgan huquq subyektlarining subyektiv huquq va yuridik majburiyatlarining mazmunini aniqlash uchun boshqa hujjatlarning normalarida belgilangan tegishli qoidalarga havola qiladi. Masalan, Jinoyat kodeksida yong'in xavfsizligi, texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi yoki mehnatni muhofaza qilishning boshqa qoidalarni buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan (Jinoyat kodeksi, 257-modda). Ushbu qoidalarning mazmuni Jinoyat kodeksida emas, balki normani qo'llashda murojaat qilish zarur bo'lgan boshqa normativ hujjatlarda ochib beriladi.

-havola etuvchi dispozitsiya deganda qo'llanayotgan huquq normasi mansub bo'lgan normativ-huquqiy hujjatning boshqa normasiga (masalan, Jinoyat kodeksining 110-moddasi - «Qiyinlash») yoki boshqa normativ-huquqiy hujjatga murojaat etishni nazarda tutuvchi dispozitsiya havola etuvchi dispozitsiya sifatida tushuniladi. Sanksiya huquq normasining mantiqiy-yakunlovchi qismi hisoblanadi.

Huquqiy norma sanksiyasi (jazo chorasi) – yuridik normaning huquqiy norma dispozitsiyasini buzganlik natijasida yuzaga keladigan salbiy oqibatlarini ko'rsatib beruvchi qismi. Sanksiya – yuridik normaning mantiqiy yakunlovchi tarkibiy qismidir. Unda jamiyat, davlat, shaxsning huquqiy normalarini buzuvchilarga nisbatan salbiy munosabati ifodalangan. Huquq normalari e'tiqodi, huquqbuzarliklar mavjud ekan, sanksiya yuridik normalarga rioya qilish va ularni bajarishning ta'sirchan vositasi – qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlash vositasi bo'lib qolaveradi. Sanksiya - dispozitsiyada ko'rsatilgan talablarni bajarmaganlik uchun berilishi mumkin bo'lgan ta'sir chorasi yoki tavsiya etilgan harakatni sodir etganlik uchun rag'batlantirishning turi va o'lchovi hisoblanadi.

Sanksiyalarda ifodalangan salbiy oqibatlarining aniqligiga qarab mutlaq aniq, nisbatan aniq va kumulyativ sanksiyali normalar ajratiladi. Mutlaq aniq sanksiyali huquq normalarida davlatning aniq bitta majburlov chorasi ko'rsatiladi. Masalan, transport vositasini boshqarish vaqtida haydovchilarning telefonidan foydalanishi bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi (O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, 128-modda).

Nisbatan aniq sanksiyali huquq normalari esa turli xil jazo turlaridan birini yoki huquqiy ta'sir choralardan birini qo'llashni nazarda tutadi. Masalan, haydovchilarning korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga qarashli transport vositalaridan shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanishi bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi (O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, 141-modda).

Kumulyativ sanksiyali huquq normalari o'zida asosiy jazodan tashqari qo'shimcha jazo berilishini ham nazarda tutadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 43-moddasida «Jazo tizimi» belgilangan bo'lib, unga ko'ra jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxslarga nisbatan muayyan huquqdan mahrum qilish faqat asosiy jazo sifatidagina emas, balki qo'shimcha jazo tariqasida ham qo'llanilishi mumkin. Masalan, transport vositasini boshqaruvchi shaxs tomonidan transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarni buzish odam o'lishiga sabab bo'lsa, muayyan huquqdan mahrum qilib, yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilab qo'yilgan (O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, 266-modda).

Sanksiya lug'aviy jihatdan «qat'iy qaror» degan ma'noni bildirib, lotin tilidagi «sanstio» va ingliz tilidagi «sanstion» so'zlaridan olingan.

Xulosa. Huquq ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etuvchi vosita sifatida doimo, muayyan xulq-atvor, xatti-harakat qoidasi sifatida o'zini namoyon etib, u tegishli hayotiy holatlarda huquq subyektlari tomonidan qayta-qayta qo'llanishga mo'ljallangan.

Huquq o'z ichki tuzilishiga ega. Yaxlit bir tizim sifatidagi huquq tizimi o'z ichki huquq tarmoqlarini, huquq institutlarini oladi. Huquq tizimining eng kichik, birlamchi tarkibiy unsuri bo'lib, huquq normasi hisoblanadi. Agar huquqni, huquq tizimini bir bino deb qaraydigan bo'lsak, huquq normasi uning bir gashti sifatida yoki bir jonli organizmning eng kichik bir hujayrasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, unda huquqqa xos bo'lgan muhim belgilar jamlangan bo'ladi. Huquq normasi hokimiyat tepasida turgan siyosiy kuchlarning amr-irodasini ifodalaydi; davlat tomonidan o'rnatilgan yoki sanksiyalangan bo'ladi; barcha huquq subyektlari tomonidan bajarilishi majburiy; aks holda davlatning majburlov kuchi bilan ijrosi ta'minlanadi; normativ aktlarda va boshqa huquq manbalarida ifodalangan.

Ayni paytda, huquq normasiga yaxlit bir tizimning eng kichik bo'lakchasi sifatida o'ziga xos jihatlar ham tegishlidir.

Aslida „norma“ so'zi lotincha bo'lib, u o'zbekchada „qoida“, „namuna“ ma'nolarini anglatadi. Darhaqiqat, har bir norma o'zida biron-bir xatti-harakat, xulq-atvor qoidasini, muayyan yurish-turish modelini ifodalaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 60-moddasiga binoan, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar, - bu huquqiy norma fuqarolarning amaldagi qonunchilikka nisbatan qanday xatti-harakat qilishi to'g'risidagi qoidalarni o'zida mustahkamlagan. Shunday qilib, huquq normasi – barcha huquq subyektlari uchun majburiy bo'lgan, davlat tomonidan o'rnatilgan va sanksiyalangan xatti-harakat qoidasi, xulq-atvor namunasi bo'lib, unda ijtimoiy munosabat qatnashchilarining huquq va majburiyatlari mustahkamlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Islomov Z., Mirhamidov M. Huquqshunoslik. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent-2002
2. Saydullayev Sh. Davlat va huquq nazariyasi: darslik. „Yuridik adabiyotlar publish“. Toshkent: TDYU, 2021. 124-bet
3. Lex.uz O'zbekiston Respublikasining „Chet el investitsiyalari va xorijiy investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida“gi Qonunning 2-moddasi. 1998-yil 30-aprel
4. Golunskiy S.A., Strogovich M.S. Теория государства и права. Москва-1940. 251-bet
5. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi: darslik. Toshkent: Adolat, 2018. 257-bet
6. O'zbekiston Yuridik ensiklopediyasi. Nashr uchun mas'ul R.A. Muhiddinov va boshqalar. Mas'ul muharrir N. To'ychiev. Toshkent: Adolat-2010. 140-bet